



MAKTABLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINING SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

Adjiev Nayrullo Nazrulloevich

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Sport faoliyati va san'at fakulteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7192482>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 13th October 2022

KEY WORDS

uzluksiz ta'lim, jismoniy madaniyat, ta'lim samaradorligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, samaradorlik, barkamol shaxs.

ABSTRACT

Ushbu maqolada uzluksiz maktablarda jismoniy madaniyat fanini o'qitishning dolzarb masalalari va ta'lim samaradorligiga erishishda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari to'g'risida fikr yuritilgan.

KIRISH

Kadrlar tayyorlashning maqsadli tizimini rivojlantirish orqali jamiyat va davlatning malakali va raqobatbardosh zamonaviy mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirish o'zining dolzarbligi bilan o'ta ahamiyatlidir. Ta'lim tizimi inson va jamiyatning turfa xil ta'limiy ehtiyojlarini qondirishda keng imkoniyatlarni, bilimlarning ahamiyati va nufuzini oshirishi, shuningdek, mutaxassislarni umumta'lim, umummadaniy, kasbiy va ilmiy tayyorlashga qaratilgan bo'lishi va ular olayotgan bilimlarning fundamentalligini ta'minlashi shart. Globallashtirish sharoitida ta'lim ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning bosh omili sifatida e'tirof etilib, jamiyatning o'ta muhim qadriyati deb qaralmoqda. Uning ustuvor va harakatlantiruvchi kuchi mustaqil, ijodiy fikrlashga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, ijtimoiy-kasbiy faoliyat yuritishga qodir bo'lgan mutaxassis shaxsdir. Shaxsni shakllantirishda oliy ta'lim faqat ilm-fan muassasalari emas, balki mamlakat mintaqalarining madaniy-ta'limiy, ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy markazlari ham

hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimi mustaqillik yillarida jiddiy tarkibiy, tashkiliy va ma'no- mazmun o'zgarishlarga yuz tutib kelmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ayniqsa, ta'limda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, dars mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish bugungi kunda o'ta kechiktirib bo'lmaydigan muhim masaladir. Yoshlarni har tomonlama sog'lom, barkamol bo'lib yetishishida jismoniy madaniyat ta'limini milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy ko'rinishda tashkil etish, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy kamolot, jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda yangicha yondashuv asosida o'tkazishni taqozo etmoqda. Jismoniy tarbiyaning vazifasi sog'liqni saqlash, jismoniy sifatlarni o'stirish, yosh avlodni aqliy va jismoniy mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlashdan iboratdir. Bu g'oya uzoq o'tmishdan ota-bobolarimizning ma'naviyatida aks etib kelgan.



Ma'lumki, jismoniy madaniyat tushunchasi - xalq madaniyatining bir sohasi sifatida e'tirof etiladi. Jismoniy madaniyat insoniyat tomonidan to'plangan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi, undan kishilarning kamoloti uchun keng foydalanilish maqsadga muvofiqdir. buning uchun jismoniy kamolotga erishishni maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, metodlar va sharoitlarni yaratish va ulardan ratsional foydalanish zarurati mavjud. Shuningdek, jismoniy madaniyat jamiyatning rivojlanishida ma'lum xizmatlarni ham bajaradi [2]:

* Inson harakat faoliyatini ratsional me'yorini belgilash;

* Jismoniy tarbiyaga oid madaniy axborotni to'plash xizmati va uni avlodlardan avlodga uzatish va tarqatishga vositachilik qilish;

* Shaxslararo muloqot, o'zaro aloqa (kommunikativlik) munosabatlarini shakllantirish;

* Shaxsning harakatlari estetikasi talabini qondirish bilan bog'liq (estetikaga oid) xizmati;

* Shaxsning doimiy harakat qilishga bo'lgan tabiiy talabini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va uning kundalik turmush uchun lozim darajadagi jisman-yaroqlilik holatini ta'minlash (biologik) kabi xizmatlarni amalga oshiradi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jismoniy madaniyatning boshlang'ich zamini shartli ravishda maktabgacha va umumiy ta'lim maktablarida yaratiladi. Bu bilan maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarida, umumta'lim maktablari va boshqa o'quv-tarbiya muassasalarida jismoniy madaniyat o'quv darsi sifatida amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida umumiy jismoniy ma'lumot uchun asos yaratadi, jismoniy qobiliyatlarining har tomonlama rivojlanishi, mustahkam sog'lik bazasining vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Bu shaxs uchun har tomonlama zarur bo'lgan jismoniy salohiyat darajasining asosini yaratishga kafolat vujudga keladi [4].

Maktab jismoniy madaniyati esa o'quvchi jismi tarbiyasi uchun asosni shakllanishiga poydevor vazifasini o'taydi. Shunday ekan jismoniy madaniyat ta'limini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish ta'limning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim texnologiyalarini jismoniy madaniyat ta'limi jarayoniga joriy etish, balki o'qituvchilar jamoasi pedagogik mahoratini doimiy oshirib borishni, o'quv-tarbiya jarayonini yuksak nazariy-uslubiy darajada amalga oshirishga tayyorlashni, o'qitish va tarbiyalashning ilg'or usullari, shakllari va vositalarini qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi [5]. Biroq, kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, hali ham ta'lim muassasasi o'qituvchi - murabbiylarida «Pedagogik texnologiya» tushunchasining yagona shakl- tamoyilini shakllantirishda va kadrlar tayyorlash tizimida uning o'rnini, ta'lim jarayonining yaxlitligi va har bir aniq mashg'ulotdan samarali natijaga erishish va uni anglab yetish murakkab kechmoqda. Shuni alohida takidlab o'tish zarurki, fan-texnika va texnologiya shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda ta'lim muassasalari professor - o'qituvchilari oldida katta mas'uliyatli vazifalar qo'yilmoqda. Shu nuqtai nazardan ta'lim tizimida ilg'or innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini bevosita ta'lim jarayoniga qo'llash va undan samaradorlikka erishish kunning dolzarb masalalaridan biridir.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday ekan, jismoniy madaniyat ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy usul, vositalari hamda texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida o'rta maktab tizimida qo'llash mumkin bo'lgan o'qitish usul va texnologiyalari ko'rsatib o'tilgan. Asosiy pedagogik usul va texnologiyalar:

1. An'anaviy ta'lim (sinf-dars shakli, monologik, axborotni uzatishning bir tomonlama yo'naltirilgan sxemasi).
2. Interfaol usullar.



3. Noan'anaviy usullar.
4. Ta'lim texnologiyalari.
5. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim texnologiyalari.
6. Pedagogik jarayonni axloqiy-shaxsiy yo'naltirilganlikka tayanuvchi pedagogik usullar.
7. Muammoli ta'lim;
8. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkillashtirishga asoslangan pedagogik usullar.
9. Didaktik malaka oshirish va materialni rekonstruksiya qilish asosidagi pedagogik usullar.
10. O'quv fanlari bo'yicha pedagogik usullar.
11. «Eng yaxshi yil o'qituvchisi» mualliflik pedagogik usullari.
12. Muqobil usullar.
13. Tabiatga mos keluvchi usullar.
14. Rivojlantiruvchi ta'lim usuli. Tajribalarga asoslanib xulosa o'rnida aytish mumkinki, uzluksiz ta'lim tizimining barcha muassasalarida jismoniy madaniyat darslarida faol qo'llanilinishi tavsiya etilayotgan dars berishning yangi metod, usul va innovatsion texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish orqali ko'zlangan natijalarga erishish imkoniyati oshadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi NPQ-3775 - sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Darslik. T2005.168 bet.O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005 y.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: 2015. – 208 bet.
4. Tojiev M., Xurramov A. Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim usullari. Metodik tavsiyanoma. T.: «Fan va texnologiya», 2014, 96 bet mat.
5. Maqsud SHERMATOV (2020) Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tarbiyalashda innovatsion yondashuvlar. Xalq ta'lim №3 78-84 b
6. M.N.Shermatov (2020) Uzluksiz ta'lim muassasalarida «uzbol» sport o'yinini kiritishning xususiyatlari to'g'risida. «Uzluksiz ta'lim» 82-86. B